

LINGUISTIC APPROACH TO THE RESEARCH OF PLACE NAMES IN
NORTHERN AFGHANISTAN

Emadi Nesar Ahmad

Termez University of the World Linguistics Uzbek Language

1st year undergraduate student of the master's department

Email: nesarahammademadi@gmail.com

SHIMOLIY AFG‘ONISTON HUDUDIDAGI JOY NOMLARI TADQIQIGA
LINGVISTIK YONDASHUV

Emadi Nesar Ahmad

Termiz davlar universiteti Linguvistika o‘zbek tili

Yo‘nalishi magistratura bo‘limi 1- kurs magistranti

Email: nesarahmademadi@gmail.com

Annatatsiya: Ushbu maqolada Shimoliy Afg‘onistondagi toponimlarning tarixiy kelibchiqishi, shakllanishi va semantik xususiyatlari o‘rganilishga bag‘ishlangan. Ushbu hududda qadimdan turli millat vakillari yashab kelmoqda jumladan: turkiy xalqlar yashab o‘z tiliga xos bo‘lgan toponimlar qo‘llanib bugungi kungaqadar ifodalanib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: Toponim, leksik, semantik, onomastik, geografik, millat, davr, xususiyat.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению исторического происхождения, формирования и семантических особенностей топонимов в Северном Афганистане. С древних времен в этом регионе проживали представители различных национальностей, в том числе тюркские народы, которые использовали топонимы, характерные для их языка, и продолжают использовать их до сих пор.

Ключевые слова: топоним, лексический, семантический, ономастический, географический, национальность, эпоха, особенность.

Abstract: This article is devoted to the study of the historical origin, formation and semantic features of toponyms in Northern Afghanistan. Representatives of various nationalities have lived in this region since ancient times, including: Turkic peoples, who have used toponyms characteristic of their language and have been expressing them to this day.

Keywords: Toponym, lexical, semantic, onomastic, geographical, nationality, era, feature.

Toponimlarning tadqiq etish uchun tarix, tilshunoslik, geografiya kabi tarmoqlarning o‘ziga xos bo‘lgan yondashuvi mavjud. Joy nomlari xalqning etnik kelibchiqishi va shakllanish tarixini aniqlaydi hamda bu toponimlar esa tilshunoslikning muhim bir bo‘limi hisoblanadi. Xuddiy shunday Shimoliy Afg‘oniston hududidagi toponimlar ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib, tarixiy etnik jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu hududdagi mavjud bo‘lgan joy nomlari qadimdan turkiy qabila va urug‘larning yashash maskani bo‘lib, ularning gapirishi hamda qo‘llash leksemasiga nisbatan atoqli ot va joy nomlari qo‘yilgan. Bugungi kunda mazkur hududda yashayotga aksariyat millat vakillari o‘zbek, turkman xalqlaridir va bular ham hozirgi kungaqadar o‘zlarining tarixiy obedalarini saqlash maqsadida asl tarixiy nomini qo‘llab kelmoqdalar. Mazkur hududda tarixiy tepalik, tuman nomi, ziyorat nomi, qishloq nomi, ariq kabi



nomlar turk, o'zbekcha nomlari bilan atalib, butun xalq esa bu joy nomlarni o'z kundalik hayot tarzida qo'llab kelamoqda.

Afg'onistonda ancha joylarning ismi "Do'rman" otiga mansub bo'lib, "Afg'oniston qishloqlar atlas" da bu kabi "Do'rman" otli joylar qayd etilgandir. Qunduz viloyatida Do'rmanobod, Imom sohib tumanida, Qal'ayizol, Chordaralarda Do'rman hamda Balx viloyatining Davlatobod tumanida ham Do'rman deb qayd etilgan. Atlasdagi ma'lumot qirq yil burung'i ma'lumot bo'lib, bundan boshqa yillarda ham Do'rman otiga mansub qishloqlar mavjuddir misol uchun: Taxor viloyatining Rustoq tumanidagi "Olti durman" qishloq nomi qayd etilgan Kashakki Qunduzda ikki qishloq Do'rman oti bilan qayd etilgan. Birinchisi Toyifa Do'rman

Chordara tomonida, ikkinchisi esa, Qal'ayizol tumanida joylashgan Do'rman va Bosusdir¹.

Baromug' (براموغ) qishlog'i Saripul viloyatining So'zma Qal'a tumanida joylashgan bir qishlog' nomidir bu qishloq turlicha ataladi Baromug', Baramg', Baromug', Baromak shakllarida qayd etilgandir. Baromug' yoki Baromak degan joy nomlari Saripul viloyatining Kachan degan qishlog'ida ham mavjud va yana So'zma Qal'a tumanida ham Baramug' degan joy nomi mavjud bo'lib u yerda o'zbeklar yashaydi.

Bundan tashqari Samangon viloyatida ham Baromak degan qishloq mavjud hamda shu viloyatning markazida Burma otli qishloq mavjuddir. Mazkur viloyatning Aybak tumani yaqinida Barma degan ko'tal ham mavjuddir. Afg'onistondan tashqari O'zbekistonning Xorazm viloyati Yangi ariq tumanida Baromiq degan mahalla ham bor aslida Baromug' qozoqlarning "Alash" urug'ini tarmog'i bo'lgan. Alash urug'i Qozog'iston G'arbiy havzasida yashamoqda. Shu kabi Samangon viloyatida qozoqlarga tegishli joylar otidan biri bu Alash qishlog'idir. Bundan tashqari Samangonda Qozoqli yoki Qozoyoqli degan qishloq ham mavjud. Alash Qozoqlarning katta urug'laridan bo'lib, Baromug' uning bir tarmog'idir. Misr mamluklari davrida, Sayfiddin Baromiq degan amir o'tgan bo'lib, shu mamluklar qalamravida yashaganlar. Mazkur urug' yillar davomida turli xil qabila urug'lar bilan qo'shilgan jumladan: o'zbeklar bilan bir joyda yashab o'zbekcha so'zlab, o'zbeklar qatorida hisoblanib kelmoqda va So'zma Qal'a tumanidagi Baromug' qishlog'i anashu tufayli nomlangan.

Unguti O'zbekiya: (اونگوت اوزبیکیه) Unguti o'zbekiya Afg'onistonning Saripul viloyatida joylashgan qishloqlardan biridir. Mazkur qishloq bir nechti xil nom bilan ataladi Ungut, Engut, Angot kabi nomlar ifodalanadi. Bu nom o'tmishdagi turkiy qabilalarning yashash maskani bo'lib, hozirgi kungaqadar turkcha, o'zbekcha ism bilan qo'llanib kelmoqda. Ungut qabilasi turkiy xalqlardan biri hisoblanib, mo'g'ullar, temuriylar, shayboniylar davrida Afg'oniston, Eron va markaziy osiyning turli hududlarida yashagan. Bu qishloqda yashovchi aholisi aksariyat o'zbek millatidir boshqa millatlar ham oz-oz shu qishloqda yashaydilar.

To'ymas: (تویمس) Foriyob viloyatining Qaysor tumanida joylashgan bir qishloq nomidir bu qishloq To'ymast deb ham ataladi. Taxor viloyati Toliqon tumanida Taka To'ymas degan qishloq mavjud. Afg'onistondan tashqari ham To'ymastga o'xshagan ba'zi bir toponimlar uchraydi jumladan: Totoriston Respublikasida Toymas degan qishloq nomi bor. Boshqiriston Respublikasida Toymoz tumani mavjud bu tumanning markazi ham Toymoz deb ataladi. Demak, Maymana tumanidagi bir nechita qishloqlar bo'lib, aholisi Qaysor tumanini Janubida qipchoq lahjasidagi o'zbeklardir. Yana bir To'ymast qishlog'i Hirok tagovini G'arbida bo'lib, aholisi Geg o'zbeklar va Makrit o'zbeklar ekanligi bayon etiladi².

¹ Intizor Diplom Ahmad Jovid. Saripuli dero'z, imro'z va fardo, 1-jild. – Juzjon viloyati, Farg'uniyon, 2012. – B. 32, 120.

² Intizor Diplom Ahmad Jovid. Saripuli dero'z, imro'z va fardo, 1-jild. – Juzjon viloyati, Farg'uniyon, 2012. – B. 27, 126.



Soltiq: (سالتیق) Afg'onistonda toponim shaklida ishlatilib kelayotgan Saltaq, Saltuq, Soltaq kabi shakllarda nomlanmoqda. Jumladan Juvzjon viloyati Xojaduku tumanida Soltaq qishlog'i, Soltag' Afg'oniya, Soltaqi xurd turkmaniya qishlog'lari ifodalanib kelmoqda. Shuningdek mazkur viloyatning Murdiyon tumanida Soltaqi Afg'oniya, Soltaqi turkmaniya va Soltaqi silburd degan qishloqlari mavjud. Balx viloyatining Davlatobod tumanida qishloqlar qatorida turadegan Hoshimobod Soltaq, Hoji Ya'qub va Rahmat pahlavon qishloqlari bor. Soltaq turk qabilalaridan kelibchiqqan toyifa bo'lib, mazkur viloyatning Hajdanahr tumanida yashaydilar. Juzjon viloyati Shibirg'on shahrining Shimoli-g'arbi Andxuy tumani yo'lining Shimol-Sharqida joylashgan Soltaqi kalon (katta soltaq), Soltaqi nav (yangi soltaq), Soltaqi xurd (kechkina soltaq) degan qishloqlari ham mavjuddir. Bundan tashqari Oqcha tumani bilan Nimlikni o'rtasida joylashgan bir joy Soltaq deb nomlanadi. Saripul viloyatining Syidobod yaqinida joylashgan Xotun qishlog'ida Soltug'lar urug'ini bir qismi yashaydi.

Uybuloq: (اوی بولاق) Balx viloyatining Chorkent tumaaniga tegishli bo'lgan qishloqlardan biridir. Bundan tashqari Samangon viloyatida ham Uybuloq nomli bir qishloq nomi bor hamda Darayisufi bolo tumanida zikr etilgan. Mahalliy organlar mustaqil idorasi Darayisufda Voybuloq qishlog'i bor degan fikrni ham bildiradi. Deymak, Voybuloq aslida Uybuloq qishlog'ining fonetik o'zgartirilgan shaklidir. Uybuloq bilan G'oshu va Alimardon birga shunday (*Uybuloq*) deb atalgan. Afg'onistondan tashqari Tojikiston mamlakatida ham Uybuloq degan qishloq nomi bor. Bu qishloq Tojikistonning tog'li Badaxshonida Og'boy *Uybuloq* deb ataladi. O'zbekistonning Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida ham *Uybuloq* qishlog'i mavjud.

Argu: (ارگو) Argu tumani Afg'onistonning Shimoli-Sharqiy qismida joylashgan Badaxshon viloyatining muhim hududiy qismlaridan biridir. Ushbu tuman 2005- yilda Fayzobod tumanidan ajralib, o'zi mustaqil bir tumanga ega bo'ldi. Mazkur tuman o'zining tog'li murakkab iqlimi sharoiti va chekka geografik joylashuvi bilan alohida ajralib taradi. Ayrim xalqlar lahja ta'siriga nisbatan Arguning Orga yoki Orgu deb ham talaffuz qiladilar. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, bu tuman aholisi 45000 nafargacha hisoblangan bo'lib, asosiy etnik kelibchiqishni tojiklar tashkil etadi shuningdek o'zbek, turkman, pashtun millatlari ham yashaydilar. Bu esa hududni ko'p millatli tarkibini o'ziga aks ettiradi. Argu tumanining iqtisodiyoti asosan xalqni qishloq xo'jalik bilan shug'ullanishiga asoslanadi va shu aholi o'zlarining maishiy oziq avqotlari uchun g'alla (bug'doy, arpa) kartoshka kabi mahsulotlar yetishtiradilar hamda chorvachilik bilan shug'ullanadi³.

Qarqin: (قرقین) Afg'onistonning Shimolida joylashgan Juzjon viloyatini tumanlaridan biri bo'lib, Afg'oniston bilan Turkmaniston mamlakatini chegarasida joylashgan. Bu tuman ikki davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va do'stona munosabatining mustahkamlab turadigan hududdir. Qarqin nomi asosan turkmancha leksek bo'lib, "qirq kishi" yoki yashab kelayotgan turkman qabilasi bilan bog'liqdir. Turkiy xalqlarning tarixida Qarqin nomli qabila mavjud bo'lib, ular turkman hamda mo'g'ul xalqlarining bir asosiy qismi hisoblanadi. Ayrim tarixchilar bu toponimning Buxoro xonligi davriga qolayvirsan Afg'oniston Shimolidagi turkman millatiga borib taqaladi deb hisoblaydilar. Qarqin tumani azaldan turkiy savdo-sotiq qiluvchilarning yashash manzili sifatida bo'lib, hozirgi kungaqadar o'zbek, turkman millatlarini asosiy maskani hisoblanib kelmoqda.

Bilchirog': (بلچراغ) Bilchirog' Afg'onistonning Shimolidagi Foriyob viloyatini bir tumani hisoblanadi. Mazkur tuman Foriyob viloyatining janubiy qismida joylashgan tuman bo'lib, Qaysor, Davlatobod, Almor tumanlari bilan yonma-yon joylashgan. Bu hududning asosiy yashovchi aholisining aksariyati o'zbeklar keyin pashtunlar va beroz tojiklardan iboratdir. Bilchirog' tumanida o'zbek tili hamda pashtu tili kengroq qo'llaniladi. Bil ayrim turkiy tillarda

³ Foriyobi Sardor Elmurod Arg'un. Nomhoi turkiy dar jug'rofiyoyi torixiy Afg'oniston. – Mozori-Sharif, 2017. – B. 5, 74, 83.



tepa degan ma'noni beradi va chirog'(chiroq) esa, nur, yorug'lik ma'nolarini anglatadi. Ba'zi bir qarashlarga ko'ra mazkur toponim turkiy xalqlarga tegishli joy nomi hisoblanib, bugungi kungaqadar o'zbeklarning yashash manzili sifatida qo'llanilib kelmoqda⁴.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

Intizor Diplom Ahmad Jovid. Saripuli dero'z, imro'z va fardo,1-jild. – Juzjon viloyati, Farg'uniyon,2012. – B. 32, 120.

Foriyobi Sardor Elmurod Arg'un. Nomhoyi turkiy dar jug'rofiyoyi torixiy Afg'oniston. – Mozori-Sharif, 2017. – B. 5, 74, 83.

Edorai milliy va ehsoiya va ma'lumot- Barovurdi nufusi Afg'oniston.- Kobu, 2020.- B. 29-38.

Azimiy.Said. Sherak,Ungut,Tibir,Qarluq uruq qishlog'lari haqidagi ilmiy tahqiqiy maqolalaridan olindi.

Emadi N.A. Shimoliy Afg'oniston hududidagi Saripul viloyatining o'zbek tilidagi toponimlari//Modern Science and Research, 2025.

⁴ Edorai milliy va ehsoiya va ma'lumot- Barovurdi nufusi Afg'oniston.- Kobu, 2020.- B. 29- 38.

